

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR ORQALI EKOLOGIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi

Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedra o‘qituvchisi

Xayitboyeva Mohinur Qayumjon qizi

Qo‘qon universiteti Maktabgacha

ta’lim yo‘nalishi 2.23-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarini shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ekologik tarbiya va o‘yin texnologiyalarining bolalar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinib, innovatsion pedagogik yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: syujetli-rolli o‘yinlar, ekologik tushunchalar, maktabgacha ta’lim, ekologik tarbiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar.

KIRISH

Hozirgi davrda ekologik tarbiya va atrof-muhitni asrash masalasi jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ekologik madaniyatni shakllantirish bolalik davridan boshlanishi lozim, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat hodisalariga nisbatan qiziquvchan bo‘lib, ularning ekologik tushunchalarini egallashi tabiat bilan bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ekologik ongini rivojlantirish, ularni tabiatni sevish va asrash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda syujetli-rolli o‘yinlardan foydalanish samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 8-martdagи PF-5655-sonli farmon va “Maktabgacha

ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g“risida” 2019-yil 16-dekabrdagi PQ-4312-sonli qaror ekologik tarbiyani ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy etish zaruratini ta’kidlaydi.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari, pedagogik texnologiyalarning o‘rni hamda ushbu uslubning samaradorligi tahlil etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va ekologiya sohasidagi islohotlari bilan bog‘liq holda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani takomillashtirish yo‘llari yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish va syujetli-rolli o‘yinlarning pedagogik ahamiyati bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu bo‘limda ekologik tarbiya, o‘yin texnologiyalari va bolalar psixologiyasi sohasidagi ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

Ekologik ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari bo‘yicha A. N. Zaharova hamda L. V. Bayborodova asarlarida ekologik ongning shakllanish bosqichlari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tarbiyaning samarali usullari keng yoritilgan. Mualliflarning tadqiqotlarida ekologik ta’limning erta yoshdan boshlanishi uning natijadorligini oshirishi ta’kidlangan.

O‘zbekistonda ekologik tarbiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan A. A. Yo‘ldoshev va M. A. Xolmirzayeva tomonidan taqdim etilgan ilmiy ishlarda maktabgacha ta’lim tizimida ekologik tarbiyaning uslubiy asoslari va interaktiv metodlarning qo‘llanilishi bo‘yicha tajribalar bayon etilgan. Ayniqsa, syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati, bolalarning tabiatga bo‘lgan munosabatini ijobiy shakllantirish jarayonidagi o‘rni alohida tahlil qilingan.

Syujetli-rolli o‘yinlarning bolalar rivojlanishiga ta’siri masalasida L. S. Vygotskiy va D. B. Elkonin tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiq. Ushbu olimlarning pedagogik-psixologik qarashlariga ko‘ra, syujetli-rolli o‘yinlar bolaning ijtimoiy tajribasini

kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish va ekologik ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta’lim sohasidagi islohotlarga oid “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 16-dekabrdagi PQ-4312-sonli qaror ekologik tarbiyani ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu hujjat ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, YuNESKO va YuNISEF kabi xalqaro tashkilotlarning maktabgacha ta’limdagi ekologik tarbiya bo‘yicha tavsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada YuNESKOning “Ekologik ta’limni rivojlantirish strategiyalari” nomli dasturiy hujjatida ekologik ongni shakllantirishning amaliy uslublari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar va normativ hujjatlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirishning samarali texnologiyalarini aniqlash, ularning amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy metodlar va empirik tahlil natijalari keltiriladi. Tadqiqot eksperimental-pedagogik yondashuv asosida tashkil etilib, o‘yin texnologiyalarining bolalar ekologik ongiga ta’siri o‘rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ✓ Nazariy tahlil – pedagogika, psixologiya va ekologik ta’limga oid ilmiy adabiyotlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, xalqaro tajribalar o‘rganildi.

✓ Empirik tadqiqot usullari – mакtabgacha yoshdagi bolalar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib, syujetli-rolli o‘yinlarning ularning ekologik tushunchalariga ta’siri baholandi.

✓ Pedagogik tajriba – syujetli-rolli o‘yinlar asosida tuzilgan maxsus mashg‘ulotlar ikki guruhgа nisbatan sinovdan o‘tkazildi:

- Tajriba guruhi – syujetli-rolli o‘yinlardan faol foydalanilgan guruh;
- Nazorat guruhi – an’anaviy usullardan foydalanilgan guruh.

✓ Suhbat va kuzatish – bolalarning tabiatga nisbatan munosabatidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun psixologik-pedagogik kuzatish va suhbat o‘tkazildi.

✓ Diagnostik testlar va baholash mezonlari – tadqiqot oldidan va yakunida bolalarning ekologik tushunchalari, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati va bilim darajasi maxsus testlar asosida baholandi.

NATIJALAR.

Empirik tahlil natijalari:

Tadqiqot Qo‘qon shahridagi 18-Maktabgacha ta’lim tashkilotida 5-6 yoshli bolalar ishtirokida o‘tkazildi. Unda 30 nafar bola (15 nafari tajriba guruhi va 15 nafari nazorat guruhi) qatnashdi. Empirik tadqiqot natijalari quyidagicha tahlil qilindi:

❖ Boshlang‘ich bosqich natijalari: Tadqiqot boshlanishida bolalarning ekologik bilimlari o‘rtacha darajada bo‘lib, ko‘pchilik bolalar atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchalarini chuqur anglamas edi.

❖ Tajriba guruhi natijalari: Syujetli-rolli o‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida bolalarning ekologik ongida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Masalan, "O‘rmon qo‘riqchisi", "Ekolog mutaxassisи", "Yashil sayyora himoyachilar" kabi rolli o‘yinlar orqali bolalar tabiatni asrashga oid bilimlarni yaxshi o‘zlashtira boshladi.

❖ Nazorat guruhi natijalari: Ushbu guruhda faqat an’anaviy pedagogik usullar qo‘llanilgan bo‘lib, bolalarning ekologik tushunchalari kamroq rivojlanganligi kuzatildi.

Statistik tahlil natijalari:

- Tajriba guruhida bolalarning ekologik tushunchalari 38% dan 82% gacha oshdi.

- Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 40% dan 57% gacha ko‘tarildi.
- Bu esa syujetli-rolli o‘yinlar orqali o‘qitish an’anaviy metodlarga qaraganda 40% ga samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishda syujetli-rolli o‘yinlar samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ushbu uslab orqali bolalar tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarni tushunish va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shunday qilib, pedagoglar maktabgacha ta’lim tizimida ekologik tarbiyani kuchaytirish uchun interaktiv va innovatsion metodlarni keng qo‘llashlari maqsadga muvofiqdir.

XULOSA MUNOZARA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirish mavzusiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1.Ekologik tarbiyaning ahamiyati.

Bolalik davridan boshlab ekologik madaniyatni shakllantirish insonning tabiatga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat bilan bevosita muloqot qilish va o‘yin faoliyati orqali ekologik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtiradilar.

2.Syujetli-rolli o‘yinlarning pedagogik samaradorligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, syujetli-rolli o‘yinlar ekologik tushunchalarni shakllantirishda an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir. Ushbu metod bolalarning tabiatni himoya qilishga oid ko‘nikmalarini mustahkamlash, mas’uliyat hissini oshirish hamda amaliy bilimlarni egallash imkoniyatini beradi.

3.Empirik tahlil natijalari.

Tajriba guruhi ishtirokchilari o‘rtasida ekologik tushunchalar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi. O‘yinli mashg‘ulotlar orqali bolalar atrof-muhit muhofazasi, qayta ishlash va chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarni yaxshiroq tushuna boshladilar.

4.Davlat siyosati va ta’lim islohotlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 16-dekabrdagi PQ-4312-sonli qarori ekologik ta’limni rivojlantirish va innovatsion metodlarni joriy etish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu hujjatlar assosida maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani mustahkamlash zamon talabi ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

5.Amaliy tavsiyalar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

-Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik o‘yin darsliklari va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

-O‘qituvchilar va tarbiyachilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ekologik ta’limni tashkil etishlari zarur.

-Ota-onalar ishtirokida ekologik tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish, bolalarning oila muhitida ham ekologik bilimlarni mustahkamlashiga xizmat qiladi.

-Ekologik tushunchalarini shakllantirish jarayoniga multimediali vositalar, ekologik tadbirlar va loyihalar jalb qilinishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, syujetli-rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali ekologik ta’lim texnologiyalaridan biri bo‘lib, ularning atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, yangi interaktiv metodlarni joriy etish va bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-sonli qaror. 2019-yil 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5655-sonli farmon. 2019-yil 8-mart.
3. Zaxarova, A. N. Ekologicheskoye vospitaniye detey doshkolnogo vozrasta. – Moskva: Pedagogika, 1995.
4. Bayborodova, L. V. Doshkolnaya pedagogika ekologicheskogo obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2003.

5. Vygotskiy, L. S. Voobrazheniye i tvorchestvo v detskom vozraste. – Moskva: Pedagogika, 1978.
6. Elkonin, D. B. Psikhologiya igry. – Moskva: Pedagogika, 1989.
7. Yo‘ldoshev, A. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Xolmirzayeva, M. A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya: uslubiy yondashuvlar. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 2020.
9. UNESCO. Strategies for Environmental Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
10. UNICEF. Early Childhood Environmental Education: Best Practices and Recommendations. – New York: UNICEF, 2021.
11. Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta’lim dasturi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi nashriyoti, 2022.
12. Axmedova, N. B. Bolalar psixologiyasida ekologik tarbiyaning o‘rni. // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2019. №3. – B. 45–52.
13. Mavlonova, G. T. Syujetli-rolli o‘yinlar orqali bolalarning ekologik ongini rivojlantirish. // “Ta’lim va innovatsiya” ilmiy jurnali. – 2021. №5. – B. 78–85.